

## ADABIYOT VA TARIX FANINING O'ZARO ALOQASI

*Sultonova Fotima Muhammadodil qizi*  
*Farg'ona viloyati Rishton tumani*  
*65-umumiy o'rta ta'lim maktabining*  
*ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada asosan, bugungi kundagi adabiy jarayon va tarixiy davrlar silsilasi o'zaro bir-biriga solishtiriladi. Bundan tashqari, adabiyot va tarixning o'zaro bog'liqligi masalalari ham ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** Yevropa madaniyati, tarixiy voqealar, Qadimgi rus adabiyoti, san'at texnikasi, tarixiy tarkib va h.k.z.

Ushbu maqolada biz adabiyot va tarix o'rtasidagi chambarchas bog'liqlik haqida gaplashamiz.

Adabiy jarayon-bu ma'lum bir davrda ham, millat tarixida ham adabiyotning tarixiy mavjudligi, faoliyati va evolyutsiyasidir.

Dunyo adabiy jarayonining bosqichlari:

1. Qadimgi adabiyot
2. Antik davrning davri (miloddan avvalgi VIII-V)
3. O'rta asrlar (V-XV asrlar)
4. Uyg'onish davri (XV-XVI asrlar)
5. Klassikizm (XVII asrlar)
6. Ma'rifat davri (XVIII asrlar)
7. Yangi davr adabiyoti (XIX asrlar)
8. Zamonaviy adabiyot (XX asrlar).

Uzoq vaqt davomida adabiyot va tarix bir-biridan ajralmas edi. XVIII asrga kelib adabiyot va tarix voqealari bir-biridan ajraldi, ammo adabiyot va tarix aloqalari saqlanib qoldi. Rus adabiyoti vakillari tarixiy asarlar yozishga kirishdilar va bunday holda albatta, tarixga murojaat qildilar. Ular xalqiga, xalqining o'tmishiga bo'lgan qiziqish bilan yurtiga bo'lgan muhabbatini izohladilar. Yozuvchilar haqiqiy davrda bo'lgan savollarga javob topish uchun tarixga murojaat qildilar. Rus adabiyotida bitta qoida uzoq vaqt majburiy etib qo'yildi ya'ni qanday asar yozilishidan qat'iy nazar tarixiy mavzuda bo'lishi kerak. Rus adabiyotida bunday asarlarni Pushkinda ko'rishimiz mumkin.

Endi Yevropa adabiyotiga nazar soladigan bo'lsak, bunda albatta, Shekspirni tilga olmasak bo'lmaydi. Buyuk adabiyotshunos -juda ko'plab tarixiy mavzuda asarlar bitgan. Masalan: "Hamlet", "Otello", "Qirol Lir", "Rameo va Julietta" va h.k.z.

Biz adabiyotimizni ularning asarlarisiz tasavvur qila olmaymiz. Ularning shoh asarlari kelgusi avlod qo'lida ham sevib o'qilajak, albatta.

O'quvchi tarixiy asar o'qishni yoqtiradi. Bunga sabab, asar orqali o'sha davlat tarixining qanday ekanligini, uning ijtimoiy, siyosiy, ma'rifiy, ma'naviy va madaniy hayoti haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lishidadir.

O'zbek adabiyotida ham tarixiy janrlarda qalam tebratgan yozuvchilar bir talay. Ulardan Maqsud Shayxzoda, Odil Yoqubov, Muhammad Ali, Shuxrat, Hamza, Cho'lpon, Oybek, Hamid Olimjon, G'afur G'ulom, Mirkarim Osim, Said Ahmad, Abdulla Qodiriy va boshqalarni misol qilishimiz mumkin. Ular ham bu asarlarini yozishdan avval u tarixiy haqiqatga mos keladimi yoki yo'qmi, buni aniqlashgan. Shunday qilib, tarixiy asar yozish juda murakkab jarayon desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek. Bu nomni eshitmagan insonning o'zi yo'q bo'lsa kerak. Buyuk adib ham tarixiy mavzuda bir nechta asarlar yozib qoldirgan. "Navoiy" romani, "Qutlug' qon" va boshqalar. Oybek "Navoiy" romanini yozish uchun juda ko'p tarixiy asarlarni o'qib chiqqan va bu asrlarni bir – biriga solishtirgan, haqiqatga yaqinini romanga kiritgan. Bu romanni o'qish jarayonida biz Navoiy bobomizning qanday inson bo'lganligi, u haqidagi barcha ma'lumotlarga ega bo'lishimiz mumkin.

Bundan tashqari, atoqli yozuvchimiz Pirimqul Qodirovning "Yulduzli tunlar", "Avlodlar dovoni" asarlari ham o'zining buyuk tarixga egaligi bilan ajralib turadi. Unda mohir sarkarda, shoh va shoir bobomiz Zahiriddin Muhammad Bobur haqida hikoya qilinadi. Tarixiy asarlar biz o'quvchilarning vatanga bo'lgan muhabbatimizni yanada oshiradi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, adabiyot fanini tarix fanisiz tasavvur qilish qiyin. Eng avvalo, tarixni o'rganish kerak, keyin esa adabiyot. Tarixsiz kelajak yo'q, deganlaridek, tarixini yaxshi bilmagan avloddan buyuk insonlar chiqishi mushkul.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. N. Prutkov. Qadimgi rus adabiyoti. XVIII asr adabiyoti. Rus adabiyoti tarixi 4 jildda. - 1980-yil.
2. Alpatov M. Rossiya tarixiy fikri va G'arbiy Yevropa. - M., 1976-yil.
3. Korovina V. Y. Adabiyot, 8-sinf. Ikki qismda qo'llanma. - 2009-yil.
4. Adabiyot 6-sinf. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinfi uchun qo'llanma. (54-bet). Toshkent-2022-yil.

#### **Internet saytlari:**

1. [Jurnallar.russ.ru](http://Jurnallar.russ.ru) ()
2. [Sotisiauki.ru](http://Sotisiauki.ru) ()
3. [Litdic.ru](http://Litdic.ru) ()